

Kattalarni O‘Qitishda Masofaviy Ta’lim

Nishonova Durdona Olimjon qizi¹

Annotatsiya: maqolada kattalarni o‘qitishda masofaviy ta’limning zamonaviy yondashuvlarini va uning samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga olgan holda, masofaviy ta’limning turli xil usullari, texnologiyalari va o‘quvchilarni jalb qilish strategiyasi ko‘rib chiqiladi, shuningdek, ushbu sohada muvaffaqiyatga erishish uchun muhim omillar ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, masofaviy ta’lim, material, pedagog, usul, texnalogiyalar, motivatsiya, sun’iy intellekt, o‘qitish platformasi, konferensiyalar.

KIRISH. Kattalarni o‘qitishda masofaviy ta’lim bir qator afzalliklarga ega. Birinchidan, bu o‘quvchilarga o‘zlariga qulay joy va vaqtida o‘qish imkoniyatini beradi. Bu, ayniqsa, ishlayotgan yoki oilali bo‘lgan kattalar uchun juda muhim. Albatta, doimiy ishda faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlar uchun qulay sharoitda ta’lim olishi, o‘zi va ishiga halaqit bermagan holda sodir bo‘lishi katta muvaffaqiyatlarga olib keladi. Kun tartibini to‘g‘ri rejalshtira oladi. Ishiga va oilasiga vaqt ajrata oladi. Bir gap bilan aytganda hamma ishiga ulguradi va darslarini ham o‘zi hohlagan vaqtida bajara oladi. Oilali pedagog kadrlar uchun ham bu juda qulay usul hisoblanadi. Oila a’zolari yoki o‘zining sog‘ligida muommosi bo‘lgan holda ofline darslarga qatnasha olmas edi. Ko‘plab vaqtini davolanishda o‘tqazar edi. Bu esa darslarni vaqtida o‘zlashtira olamaslikni keltirib chiqarishi tabii hol. Bunday muommolarni bartaraf etish maqsadida ham online darslar yo‘lga qo‘yilib kelinmoqda. Bu juda yaxshi afzallik tomoni deb hisoblayman. Ikkinchidan, masofaviy ta’lim o‘quvchilarga turli xil o‘quv materiallari va resurslarga kirish imkoniyatini ham yaratib beradi. Masalan, o‘quvchilar onlayn kutubxonalar, ma’ruzalar, videolar va boshqa ta’lim materiallaridan foydalanishlari mumkin. Bu o‘zlashtirilayotgan bilimni qanchalik to‘g‘ri samarali o‘zlashtirilishini ta’minlab beradi. Pedagog kadr o‘zi uchun kerakli malumotlarni faqatgina adabiyotlardan emas, balki electron saytlar orqali turli xildagi jurnallardan ham foydalanish imkoniyatini yaratib beradi. Ular ko‘plab jahon adabiyotlaridan ham foydalanishga tuyassar bo‘ladi. Agar ularni tilini tushunmasdan qiynalayotgan bo‘lsa, internetdagi turli xil saytlarda tarjimon sifatida foydalanish imkoniyatini ham yaratib beradi. XXI asr zamonaviy texnologiyalar asri ekan har bir pedagog AKT texnologiyalaridan unumli va samarali foydalanishni bilishi zarur. Uchinchidan, Masofaviy ta’lim o‘quvchilarga o‘z sur’atlarida o‘qish imkonini beradi. Bu o‘quvchilarga oz‘larining ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda o‘quv materialini o‘zlashtirishlari mumkunligini anglatadi. Har bir pedagog o‘z qiziqishidan kelib chiqib, mashg‘ulotlarga o‘zgacha yondashadi. Bu ularning bir xillikni takrorlamasliklariga sabab bo‘ladi. Zero, har bir shaxs alohida individualni yondasha oladigan qobiliyatga egadir. O‘z ustida tinimsiz ishslash va izlanish orqali bu kabi qobiliyatlarni rivojlantirib to‘g‘ri yo‘l tomon harakatlantira oladi.

Masofaviy ta’limning turli xil usullari mavjud bo‘lib, ular o‘quvchilarning ehtiyojlari va o‘qitish maqsadlariga mos ravishda tanlanishi mumkin. Har bir usul o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Bu xususiyatlar turli o‘quvchilarga mos kelishi mumkin.

Masofaviy ta’lim usullari

- Onlayn kurslar;
- Vebinarlar;
- Video darsliklar;

¹ Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot Instituti 1-bosqich magistranti



- O‘z-o‘zini o‘rganish materiallari;
- O‘quvchilarga yo‘naltirilgan forumlar va muloqot platformalari.

Yuqorida keltirib o‘tilgan usullarni mahorat bilan o‘quvchilarga yetkazib berish esa pedagogning pedagogik mahoratiga bog‘liqidir. Kattalarni masofaviy ta’limga jalb qilish o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini saqlab qolish va samaradorlikni oshirish uchun muhimdir. Buning uchun quyidagi strategiyadan foydalanish mumkin:

Amaliy topshiriqlar. O‘quvchilarni jalb qilish uchun topshiriqlarni amaliy jihatdan o‘zlashtirishda yo‘naltirish kerak. Bu, topshiriqlarni o‘quvchilarni ish tajribasi bilan bog‘lash, haqiqiy muommolarni hal qilishga yo‘naltirish va loyiha ishlarini bajarishni talab qilish orqali amalga oshiriladi.

1. Guruh loyihalari. Guruh loyihalari o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish va muloqot ko‘nikmalarini oshirishga imkon beradi. Guruh loyihalari orqali o‘quvchilar o‘zlarini fikrlarini erkin, qo‘rmasdan bo‘lishadilar va bir-birlaridan fikr almashadilar, birga bahs va munozaralarga yechim topadilar. Eng asosiysi jamoada ishlashni o‘rganadilar. Ularda jamoaviy muhit qandey bo‘lishi kerakligi haqida ko‘nikma ham hosil bo‘ladi. Ular o‘zlarini uchun mavxum bo‘lgan savollarga yechim ham topa oladilar. Bir birini tinglash va fikrlarini inobatga olgan holda mavzuga kirishadilar. Birgalikda hamfikrlilik tuyg‘g‘usi ham asta sekin shakllana boshlaydi. Bir kishining yodiga kelmagan fikr jamoaviy muhitda boshqalarning esiga kelishi va o‘rtaga tashlanganda aniq, rivojlagan, natija bera oladigan fikr ko‘rinishiga keladi. Har biri uchun yangi bilimlar almashiniladi. Yangi fikrlar almashiniladi natijada esa har biri o‘ziga kerakli bo‘lgan bilimga ega bo‘ladi va amaliyotda qiyalmay qo‘llaydi.
2. O‘z-o‘zini baholash imkoniyati. O‘z-o‘zini baholash imkoniyati o‘quvchilarga o‘z progressini kuzatish va o‘zlarining o‘rganish jarayonida faol ishtirok etishga imkon beradi. Bu o‘quvchilarga o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga, o‘zlarini baholashga, o‘z ustida ko‘proq ishslashga, xato va kamchiliklarini qayta ishslashga, va ularni takomillashtirish yo‘llarini topishga yordam beradi. O‘zining bahosi nechchi bo‘lishidan qat’iy nazar, har birlari boshqalar ularni past baholagan taqdirda ham, bunday vaziyatlardan qiyalmay chiqib keta olish ko‘nikmasini hosil qilib beradi.

Masofaviy ta’lim sohasi doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Yangi texnologiyalar va ta’lim yondashuvlarining joriy etilishi bilan, masofaviy ta’lim o‘quvchilarga yanada kengroq va samarali o‘qish imkoniyatlarini taqdim etadi. Kelajakda masofaviy ta’lim:

- Shaxsiylashtirilgan o‘qitish;
- Virtual va kengaytirilgan haqiqat;
- Sun’iy intellect va avtomatlashtirish; kabilarga bo‘linadi.

Shaxsiylashtirilgan o‘qitish. O‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o‘rganish jarayoni shaxsiylashtirilgan bo‘ladi. Bu, o‘quvchilarga o‘zlarining ehtiyojlarini va qobiliyatlariga mos ravishda o‘quv materialini o‘zlashtirishlariga imkon beradi. Virtual va kengaytirilgan haqiqat Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari o‘quvchilarga o‘rganish jarayonini yanada interaktiv va o‘zlashtirishga qulay qiladi. Bu, masofaviy ta’limni haqiqiy hayotga o‘xshagan o‘qish tajribasi bilan ta’minlashga yordam beradi. Sun’iy intellect va avtomatlashtirish. Sun’iy intellect va avtomatlashtirish texnologiyalari o‘qish jarayonini optimallashtirish, o‘quvchilarning progressini kuzatish va o‘qitish jarayonini shaxsiylashtirishga yordam beradi

Masofaviy ta’limda muvaffaqiyatga erishish uchun muhim omillar.

Motivatsiya. O‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi juda muhim. O‘quvchilarning o‘qish maqsadlari va ehtiyojlarini aniqlashtirilishi, o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirish uchun rag‘batlantiruvchi omillar yaratilish, progressni kuzatib borish va rag‘batlantirish mexanizmlari joriy etilishi kerak.

O‘z-o‘zini boshqarish. Masofaviy ta’limda o‘quvchilar o‘zlarini boshqarish va vaqtlarini samarali tashkil etishga o‘rganishlari kerak. O‘quv jarayonini rejalashtirish, topshiriqlarni belgilangan vaqtida bajarish,



o'zlarining o'rganish progressini kuzatib borish va kerak bo'lganda qo'llab-quvvatlovchi resurslardan foydalanish o'quvchilarning muvaffaqiyati uchun juda muhimdir.

O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot masofaviy ta'limda o'quvchilarni jalg qilish va o'rganish progressini kuzatish uchun muhimdir. Bu, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida muntazam aloqa o'rnatish, masofaviy muloqot platformalari orqali muloqot qilish va o'quvchilarning savollari va muammolariga tezda javob berishni o'z ichiga oladi.

Masofaviy ta'lim didaktik ta'minotining tuzilishi.

Masofaviy ta'limda avtomatlashgan didaktik ta'minot talab etiladi. Avtomatik didaktik ta'minot 2 tarkibiy qismidan iborat: diaktik va funksional ta'minot. Didaktik ta'minot- aniq fan mazmuni bo'yicha o'quv-uslubiy majmualardan iborat bo'ladi. Funksional ta'minot – o'quv mazmunini o'rganishni modellashtirish imkonini beradi va pedagogik hamda texnologik qismlardan iborat bo'ladi.

Pedagogik bu- pedagogik maqsadga erishish uchun maqsadga va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik uslublar va texnologiyalarni uslubiy ketma-ketligi. Texnologik bu – pedagogik maqsadga erishish uchun foydalaniladigan axborot texnologiyalari ketma-ketligi. Texnologik qismni tuzishda o'qituvchining ishtiroti pedagogik va axborot texnologiyalarini birlashtirish imkonini beradi.

O'quv-uslubiy majmualarni yaratishdagi amaliy tajribalar tahlili avtomatlashgan didaktik tizimni umumlashtirishga va bosqichlarini aniqlashga imkoniyat yaratadi. Pedagogik nuqtai nazardan avtomatlashgan didaktik tizimni yaratish bosqichlari muhim omil ekanligini ko'rsatadi va bu asosan quyidagi 2 loyihaviy faoliyatdan iborat bo'ladi: pedagogik va texnologik. Ular bирgalikda tizimning funksional ta'minotini tashkil etadi va didaktik tizimni loyihalash modeli hisoblanadi. Funksional ta'minot dinamik tuzilishga ega bo'lib, unda avtomatik didaktik tizimni jarayonlari, bosqichlari, ADTni tuzish tartibi aks etadi va uning ushbu bloklari ko'zlangan natijalarini olishga yo'naltiriladi. ADT ni tuzishda "yutish" uslubi qo'llaniladi va bu rekursiv uslub deb ataladi. Model yadrosi o'quv fanining mazmuni hisoblanadi. Ushbu yadro asosida modelning birinchi qobig'i – boshqarish bloki yaratiladi va u texnologik blokni yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi. Modelning barcha komponentlari o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sirga ega. Ishlab chiqilgan didaktik ta'minotning pedagogik asoslari samaradorligini aniqlashda quyidagi mezonlardan foydalaniladi: bilimni avtomatik nazorat qilish tizimi bilan birlashgan o'quv materiallarini uzatish (yetkazish) tizimi tushuniladi.

Masofaviy ta'limda texnologiyalar.

Masofaviy ta'limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim. Bu, asosan, o'quv materiallarini onlayn tarzda etkazib berish, o'quvchilar bilan muloqot o'rnatish va o'rganish jarayonini kuzatish uchun ishlatiladigan texnologiyalarni o'z ichiga oladi.

Masofaviy o'qitish platformalari.

Masofaviy o'qitish platformalari (LMS) o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida samarali muloqot va o'qish materiallari almashish uchun zarur bo'lgan markaziy nuqta bo'lib xizmat qiladi. LMS platformalarida o'qish materiallari yuklab olinishi, topshiriqlar topshirilishi, o'quvchilarning progressini kuzatish va muloqot forumlari tashkil etilishi mumkin.

Onlayn konferentsiya xizmatlari.

Onlayn konferentsiya xizmatlari (Zoom, Google Meet) masofaviy ta'limda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida jonli muloqotni ta'minlash uchun juda foydali. Bu, ayniqsa, sinf muhokamalari, guruh loyihalari va jonli darsliklar o'tkazish uchun muhimdir.

Xulosa

Kattalarni o'qitishda masofaviy ta'lim zamonaviy o'qitishning samarali usullaridan biri bo'lib, o'quvchilarga o'zlariga qulay vaqtida o'qish imkonini beradi. Masofaviy ta'limning turli xil usullari va texnologiyalari mavjud bo'lib, o'quvchilarning ehtiyojlari va o'qitish maqsadlariga mos ravishda tanlanishi mumkin. Muvaffaqiyatli masofaviy o'qitish uchun o'quvchilarni jalg qilish strategiyasi, o'z-



o'zini boshqarish, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot kabi omillarni hisobga olish muhimdir. Kelajakda masofaviy ta'larning yanada shaxsiylashtirilgan va interaktiv bo'lishi, virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalarining qo'llanilishi kutilmoqda. Ushbu tavsiyalar masofaviy ta'lim samaradorligini oshirish va o'quvchilarning muvaffaqiyatini ta'minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Masofaviy ta'lim nazariyasi va amalioti: Proc.talabalar uchun yordamyuqoriroq ped darslik muassasalar/ E.S.Po'lat, M.Y.Buxarkina, M.V.Moiseyeva; M:"Akademiya" nashriyoti markazi, 2002.-416 b.-17-bet.
2. Abdullayev T.M, Abduqodirova M.I. "Masofaviy ta'limni ta'limni tashkil etishda mavjud online tizimlarni imkoniyatlarini tahlili". Farg'ona politexnika ilmiy-texnika jurnali.
3. <https://mustaqiltalim.uz/courses/infromatika-va-uni-oqitish-metodikasi/lesson/masofaviy-talimning-metodiktalimoti>
4. Aynisa, M. (2018). Improvement of the pedagogical mechanisms of the family and educational institutions in the development of the spiritual culture of adolescents of social and legal risk groups. Проблемы педагогики, (1 (33)), 5-7.
5. Musurmanova, A. (2018). Issues of strengthening the family institutions in Uzbekistan: Theory and practice. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 8(10), 4-11.
6. Jamoldinova, O. R. (2015). Improving the pedagogical mechanisms for the implementation of the principles of continuity and continuity in the development of a culture of healthy living among young people.
7. Ismailova, Z. K., Jamoldinova, O. R., Khimmataliev, D. O., Khakimov, J. O., & Daminov, O. O. (2020). Use of the art of management in improving the teaching skills and pedagogical techniques of the modern teacher. Solid State Technology, 258-267.
8. FAN, T., & JURNALI, P. O. I. Scientific-Theoretical Foundations of Developing the Logical Thinking Of The Future Primary School Teacher.
9. Musurmonova O, Baubekova G. Uzbek folk pedagogy. Tashkent. 2000;320.
10. Джамолдинова, О. (2015). Совершенствование педагогических механизмов реализации принципов преемственности и непрерывности в развитии культуры здоровой жизни молодежи. Каталог авторефератов, 1(1), 1-84.

